

**LIFE AND SCIENTIFIC ACTIVITY OF AZIZKHO'JAYEV ALISHER
ABBOSOVICH**

Yuldoshev Uktamjon Zavqi o'g'li
Third-Year Student of Tashkent State Law University
Uktamyuldoshev044@gmail.com

ABSTRACT	KEYWORDS
<p>This scientific article covers the life and scientific activity of Azizkhojyev Alisher Abbosovich, his contribution to the education system with his pedagogical potential. The scientist's scientific theories, work activities, and his great contribution to the legal field were studied using scientific literature and reliable articles. His scientific heritage and services in training young legal personnel are also analyzed. The article also provides information about the scientist's innovations in science, knowledge applied in the field of public administration, and pedagogical experience. The results of the study show that Azizkhodjayev Alisher Abbosovich is not only a great teacher, teacher, legal scholar and a strong political figure, his contributions to the prosperity of our country during the years of independence, his mark on public administration are incomparable and significant.</p>	<p>Doctor of Law, outstanding figure, international conference, scientific articles, teacher, public and social administration.</p>

Introduction

AZIZXO'JAYEV ALISHER ABBOSOVICHNING HAYOTI VA ILMIY FAOLIYATI

Yo'ldoshev O'ktamjon Zavqi o'g'li
Toshkent davlat yuridik universiteti 3-bosqich talabasi
Uktamyuldoshev044@gmail.com

Annotatsiya

Ushbu ilmiy maqolada Azizxo'jayev Alisher Abbosovichning hayoti va ilmiy faoliyati, pedagogik salohiyati bilan ta'lim tizimiga qo'shgan hissasi yoritib beriladi. Olimning ilmiy nazariyalari, mehnat faoliyati, yuridik sohaga qo'shgan ulkan hissasini ilmiy adabiyotlar va ishonchli maqolalar yordamida o'rganildi. Shuningdek uning ilmiy merosi va yosh yuridik kadrlarni tayyorlashda ko'rsatgan xizmatlari ham tahlil qilinadi. Maqolada olimning ilm fanga qo'shgan yangiliklari, davlat boshqaruvida sohasidagi qo'llagan bilimlari, pedagogik tajribasi haqida ham ma'lumot beriladi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, Azizxo'jayev Alisher Abbosovich nafaqat buyuk ustoz, muallim, huquqshunos olim va kuchli siyosiy arbob hisoblanadi, uning istiqlol yillaridagi yurtimiz ravnaqiga qo'shgan hissalar, davlat boshqaruvi sohasida qoldirgan izlari beqiyos va muhim o'rin tutadi.

Kalit so'zlar: yuridik fanlari doktori, yetuk kadr, xalqaro anjuman, ilmiy maqolalar, o'qituvchi, davlat va jamiyat boshqaruvi.

Kirish

Mamlakatimiz mustaqillikka erishgandan keyin o'zining o'rnini munosib saqlash maqsadida huquqiy davlat qurishga, inson qadrini yuksaltirishga, fuqarolik jamiyatini rivojlantirishga va huquqshunoslik sohasini kuchaytirishga muhim ahamiyat kasb etdi. Bu maqsadga erishish uchun turli xil sohadagi ilm-fan arboblari faol tarzda ishtirok etdi, o'zining muhim hissalarini qo'shdilar. Shu muhim siymolar orasida Azizxo'jayev Alisher Abbosovich ham bor edi. Yurtimizning mustaqil davlat sifatidagi ilk yillarida Azizxo'jayev Alisher Abbosovich bevosita ilm fanga taraqqiyotiga, davlat boshqaruvi sohasiga qo'shgan munosib hissasi unutilmas, u o'zining shaxsiy hayot yo'lida huquqshunoslik, ilm-fan, sport sohasidagi bilimlarni mukammal o'zlashtirgan shuningdek u inson sifatida ham bag'rikeng, qat'iyatli va adolat shaxs bo'lgan. Alisher Azizxo'jayev 1953 – yil 30 – sentyabrda Farg'ona viloyatining Rishton tumanida tug'ilgan. Otasining ismi Abbos Farg'ona viloyati huquqni himoya qilish organlariga faoliyat olib borgan. 1975 – yilda Toshkent davlat yuridik universitetini tamomlab keyinchalik ilmiy faoliyat bilan shug'ullangan. U yuridik fanlari doktori nomzodini va aspirantura bosqichlarini tamomlagan. 1975 – 1991 yillar oralig'ida ushbu universitetda turli darajadagi lavozimlarda ishlagan va o'qituvchi sifatida yosh yetuk huquqshunos kadrlarni ham yetishtirgan. U o'zining mehnat faoliyatini yuridik universitetda ustoz sifatida boshlagan va bu yillar davomida aspirantura va doktorlik dissertatsiyalarini himoya qilgan, huquqshunos kadrlar yetishtirgan, o'z darslarini nafaqat nazariy va balki amaliy jihatdan bo'glab o'tgan. Huquqshunoslikka oddiy bir kasb emas balki asosiy burj, majburiyat va hayot mazmuni deb yondashgan.

“Haqiqiy ustoz kitoblardan o'qitmaydi, balki o'zining hayotiy tajribasi va faoliyati bilan shogirdlariga bilim va tarbiya beradi” bu ibora uning xuddi hayotiga bag'ishlangandek.

Mustaqillikning ilk yillarida Alisher Azizxo'jayev 1996 – yilgacha O'zbekiston Respublikasi Prezidenti maslahatchisi bo'ldi. 1996 – 1998 yillarda: Bosh vazir o'rinbosari sifatida (madaniyat va ta'lim ishlarini nazorat qiladi). Bir vaqtning o'zida 1998 yil 21 apreldan boshlab diniy oqim va guruhlar faoliyatini qonuniyligini o'rganish bo'yicha Muassasalararo hay'ati a'zosi sifatida faoliyat yuritdi. 1999-2003 yillarda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti qoshidagi davlat va jamiyat qurilish akademiyasi rektori vazifasida ish olib bordi. Hukumatning yuqori lavozimlarida ish faoliyatini amalga oshirish davomida xalq bilan ishlash, ularning dardini o'zining dardidek qabul qilib, unga yuklatilgan vazifalarni adolatli tarzda ado etishga harakat qilgan. Shuningdek unga yuklatilgan lavozimlarni suiiste'mol qilmasdan har bir qabul qilgan qarorni qonundan chetga chiqishmasdan amalga oshirgan shuning uchun u tomonidan amalga oshirilgan islohotlar hozirgacha xalq orasida ijobiy ta'siri sezilib turadi.

1998 yil 10 iyuldan Axborot faoliyati va ma'lumotlarni uzatishni samaradorligini oshirish va takomillashtirish bo'yicha Muassasalararo muvofiqlashtiruvchi komissiya rais o'rinbosari. 2003 yil 7 oktyabrdan bosh vazir o'rinbosari (madaniyat ishlari nazorati bo'yicha). Bir vaqtning o'zida ma'naviyat va ma'rifat ishlari bo'yicha Respublika kengashi raisi. 2004 yil 4 oktyabrdan O'zbekiston Respublikasi madaniyat va sport ishlari vaziri. 2006 yil 6 iyuldan 2007 yil noyabrga qadar O'zbekiston Respublikasi Prezidentining matbuot kotibi. 2007 yil noyabrdan Toshkent davlat yuridik institutida kafedra mudiri. O'zbekiston Respublikasi kurash federatsiyasi (milliy kurash) prezidenti etib tayinlangan. Uning ilmiy yo'nalishlari va qarashlari asosan davlat va jamiyat qurilishi, konstitutsiyaviy

huquqiy islohotlar, huquqiy talimni takomillashtirish hamda davlat boshqaruvi tizimini rivojlantirishga qaratilgan. U kuchli fuqarolik jamiyatini qurish tarafdori bo'lgan. Alisher Azizxo'jayev o'zining monografiyalari va ilmiy maqolalarida davlat huquqi, hukumatning boshqaruv san'ati, huquqiy ta'limga bag'ishlangan ko'plab maqolalar va monografiyalar yozgan. Shuningdek ushbu sohalarda yuridik fanlari doktori va professor bo'lgan. Ijtimoiy tarmoqlardagi uning hamkasblari va shogirdlari uni juda qattiqqo'l, mas'uliyatli, huquq sohasida yetuk mutaxassis deb ta'rif bergan. Jurnalist Ismat Xushev o'zining intervyusida unga juda ham qat'iyatli, juda ishbilarmon va salohiyatli mutaxassis deb ta'riflagan. Shuningdek u Toshkent davlat yuridik universitetida o'qituvchilik faoliyatini amalga oshirib yurgan paytlarida ko'plab shogirdlarni va yetuk kadrlarni yetishtirgan, ushbu faoliyati orqali yuridik sohada bilimli va hurmatga ega bo'lgan siymoga aylantirdi. Uning mehnat va ustozlik davrini quyidagi ibora bilan ta'riflasak bo'ladi: **”Ustozlik – bu nafaqat bilim berish, balki o‘z hayoti bilan shogirdlarga yo‘l ko‘rsatish san‘atidir.”**

Ilmiy faoliyatda, uning olib borgan sa'y harakatlari beqiyos chunki huquqshunoslik fanlari doirasida chuqur ilmiy izlanishlar olib borgan va ilmiy maqolalar yozgan. Ilmiy izlanishlari asosan davlat boshqaruvi, fuqaroli jamiyati rivojlanishi, konstitutsiyaviy odil sudlov va huquqni muhofaza qilish tizimiga bag'ishlangan. O'qituvchilik faoliyatida yuridik universitetidagi ko'plab yoshlarni huquqshunoslik faoliyatida mehrini va ilmini oshirgan, yetuk kadrlarni yetishtirib chiqargan. Yurtimizdagi huquqshunoslik maktablarida va ta'lim dargohlarida uning maqolalari va kitoblari talabalarga ilm olishida ko'maklashib kelmoqda.

2025 – yil Toshkent davlat yuridik universitetida “Yangi O‘zbekistonda konstitutsiyaviy huquq fanining dolzarb muammolari” mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya o‘tkazildi.

TDYU Konstitutsiyaviy huquq kafedrasida tashabbusi bilan yuridik fanlari doktori, professor Alisher Azizxo'jayevning xotirasiga bag'ishlab tashkil etilgan xalqaro konferensiyada TDYU, O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi, O'zbekiston Respublikasi Huquqni muhofaza qilish Akademiyasi, O'zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi, Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti, O'zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti, Yuristlar malakasini oshirish markazi, O'zbekiston Respublikasi Sudyalar oliy kengashi huzuridagi Sudyalar oliy maktabi, Buyuk Britaniyaning Birmingem universiteti, Hindistonning “Christ Universiteti va boshqa oliy ta'lim muassasalarining professor-o'qituvchilari ishtirok etdi.

Xalqaro anjuman avvalida professor Alisher Azizxo'jayevning yaqinlari, hamkasblari, shogirdlari va oila a'zolari so'z olib, ustoz-yuristning hayot yo'li, ilmiy salohiyati, faoliyati va shaxsiy fazilatlarini haqida iliq xotiralarni yodga olishdi. Shuningdek, professor Alisher Azizxo'jayevning xotirasiga bag'ishlab tayyorlangan hujjatli film namoyish etildi.

Konferensiya doirasida Alisher Azizxo'jayev nomidagi o'quv xonasining ochilish marosimi ham o'tkazildi. Mazkur xonada anjuman ishtirokchilari A.Azizxo'jayevning hayot yo'li va faoliyati aks etgan suratlar bilan tanishdi.

Shundan so'ng xalqaro konferensiyaning ilmiy qismi boshlandi. Unda mamlakatimizdagi oliy ta'lim muassasalarining professor-o'qituvchilari va tadqiqotchi-olimlari, shuningdek, Buyuk Britaniyaning Birmingem universiteti professori Kris Tornxill, Rossiya Federatsiyasining Qozon federal universiteti professori, y.f.d. Yevgeniy Sultanov, Hindistonning Krist universiteti dosenti Prabhreet Singx kabi xorijiy mutaxassislarning konstitutsiyaviy huquqning dolzarb ilmiy muammolariga bag'ishlangan ma'ruzalari tinglandi. Xalqaro konferensiya doirasida sohada uchrayotgan muammolarni bartaraf etish yuzasidan taklif va tavsiyalar ishlab chiqildi.

Alisher Azizxo'jayev 2012 yil 9 yanvarda 58 yoshida saraton kasalligidan vafot etdi. Mamlakatning rivojlanishiga qo'shgan hissasi ulkan hisoblanadi chunki mustaqillikning ilk yillarida uning xizmatlari tufayli nafaqat huquqni muhofaqa qilish sohasida balki huquqshunoslik sohasi ham bir muncha rivojlandi va taraqqiy etdi. Alisher Azizxo'jayevning hukumat lavozimlarida amalaga oshirgan islohotlari va yangiliklari uni xalqning xotirasida sodiq shaxs va xalq dardi bilan yashagan inson sifatida bir umrga qoldi.

Azizxo'jayevning hayot yo'li va faoliyati mamlakatda fuqarolik institutini qurishda, konstitutsiyaviy qadriyatlarni omma orasida shakllanishida, sportning kurash turini xalqaro maydonlarga tanitishda har bir fuqaro uchun namuna bo'ladi. Uning vafotidan 13 yildan so'ng yuridik universitetda tashkil etilgan xalqaro anjuman va o'quv xonasi xalq orasida haliyam uning hurmati beqiyos ekanligini tasdiqlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Alisher Azizxo'jayev - Vikipediya - uz.wikipedia.org
2. Azizxo'jayev Alisher Abbosovich - arboblar.uz
3. Azizxo'jayev Alisher Abbosovich - yuz.uz
4. Azizxo'jayev Alisher Abbosovich - akademiklar.uz
5. O'zbekistonda davlat boshqaruvi va ilmiy meros: Alisher Azizxo'jayev ta'siri
6. TDYU professori Alisher Azizxo'jayev nomidagi o'quv xonasi tashkil etildi - tsul.uz